

SHuningdek, ulangan quvvati 5 MVt va undan ortiq bo'lgan "Iste'molchi" "Ta'minotchi korxonalar"ning talabiga ko'ra quyidagilarni hisobga olishi va bu haqida xabar berishi shart:

iste'mol qilinayotgan quvvatning har sutkalik, har oylik sarfi va amaldagi miqdori;

yagona elektr energetika tizimining eng ko'p va eng kam yuklamali davrlarida reaktiv energiya va quvvatning har sutkalik sarfi;

yagona elektr energetika tizimining eng ko'p yuklamasining o'tish davrida aktiv energiya (quvvat)ning har 30 daqiqadagi sarfi.

Ulangan quvvati 250 kVa va undan ortiq bo'lgan iste'molchilar yuqorida ko'rsatilgan majburiyatlar bilan birgalikda quyidagilarga majbur:

mahsulot birligini ishlab chiqarish (ishlarni amalga oshirish) uchun elektr energiyasi sarfining texnik va iqtisodiy jihatdan asoslangan ilg'or normalarini ishlab chiqish - umumiy ishlab chiqarish va texnologik; yakka tartibdagi va guruh bo'yicha; yillik, choraklik va oylik - ularni ishlab chiqarishni tashkil etish texnologiyasi takomillashtirilishi (o'zgartirilishi) va yangi texnika joriy etilishiga qarab qayta ko'rib chiqish;

korxonalar bo'yicha, shu jumladan ko'p energiya sarflaydigan uskunalalar, sexlar va iste'molchilar guruhlari bo'yicha elektr energiyasi balanslarini tuzish hamda ular asosida ishlab chiqarish jarayonlarida elektr energiyasidan foydalanish samaradorligini tahlil qilish, elektr energiyasining samarasiz sarflanishi va isrof bo'lishini aniqlash, ularni kamaytirish va bartaraf etish bo'yicha chora-tadbirlarni ishlab chiqish va amalga oshirish;

kelgusi davr uchun elektr energiyasiga bo'lgan ehtiyojni va elektr tarmoqlarining energiya o'tkazish qobiliyatini oshirish, elektr ta'minoti sxemalarini takomillashtirish zaruriyatini aniqlash maqsadida (mahsulot ishlab chiqarishning, bajariladigan ish turlarining mo'ljallanayotgan prognoz hajmlaridan va elektr energiyasi sarfi me'yorlaridan kelib chiqib, ularni kamaytirish va elektr energiyasini tejashni hisobga olgan holda) elektr energiyasining bir yil va kelgusi davr uchun balanslarini tuzish;

mahsulot (ishlar) birligiga elektr energiyasi sarfining tasdiqlangan me'yorlariga rioya qilish va ularni kamaytirish bo'yicha belgilangan tadbirlarning bajarilishini ta'minlash;

elektr energiyasini tejash bo'yicha (yillik va uzoq istiqbol uchun) tashkiliy-texnik tadbirlarni ishlab chiqish va amalga oshirish.

"Iste'molchi" "Ta'minotchi korxonalar" tomonidan belgilangan energiya iste'molini cheklash jadvalini bajarishi shart.

"Iste'molchi" qonun hujjatlariga muvofiq boshqa majburiyatlarga ham ega.

4.3. "Ta'minotchi korxonalar" quyidagi huquqlarga ega:

"Iste'molchi"dan shartnomada belgilangan o'z majburiyatlarini lozim darajasida bajarishini talab etish;

ushbu shartnoma shartlari bajarilmaganda yoki buzilganda "Iste'molchi" tomonidan etkazilgan amaldagi zararni belgilangan tartibda qoplatish;

avariya rejimida "Iste'molchi"ni elektr tarmog'idan uzib ko'yish;

EHNATga ulangan yoki elektr energiyasiga oldindan haq to'lash qurilmasiga ega hisobga olish pribori bo'lgan iste'molchini oldindan to'langan haq tugaganda elektr tarmoqlaridan uzish.

Elektr tarmog'i xo'jaligi ob'ektlaridagi avariyalarning oldini olish va bartaraf etish yoki odamlarning xavfsizligini ta'minlash ishlari bilan bog'liq kechiktirib bo'lmaydigan chora-tadbirlarni ko'rish zarurati bo'lganda, "Iste'molchi" bilan kelishmasdan va uni o'gohlantirmasdan energiya etkazib berishni to'xtatish yoki cheklash.

"Ta'minotchi korxonalar" qonunchilikka muvofiq boshqa huquqlarga ham ega.